SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI5Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/5 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 5-maxsus son (Iyul, 2024). -160 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Ulashova Sevinch Ulash qizi*
CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN ........ 8-13

*Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li*
"XITOY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI ........ 14-18

*Dexkanov Narimon Burxonjonovich*
ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI ........ 19-22

*Saparbayeva Aziza Asror qizi*
SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI ........ 23-28

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi*
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........ 29-34

*Utkirov Anvar Utkirovich*
KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI ........ 35-44

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li*
GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 45-52

*Rahmonova Feruza Bahromjon qizi*
XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA ........ 53-58

*Aripova Zulfiyaxon Salijanovna*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI ........ 59-64

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Nishonova Xurshida Yusufjanovna*
SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI ........ 65-73

*Hikmatova Nigina Akmalovna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI ........ 74-79

*Sultanova Xurshida Uktamjanovna*
PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA) ........ 80-86

*Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi*
XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH ........ 87-91

*Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna*
J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 92-96

*Miraxmedova Zilola Erkinovna*
EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI ........ 97-101

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Абдуолимов Уринбой Худобердиевич*
ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ........ 102-110

*Алишаев Собир Турсунбоевич*
СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ........ 111-119

*Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li*
OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO`RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)........ 120-124

*Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna*
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT ........ 125-135

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Rashidova Oynisa Xusniddin qizi*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 136-140

*Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi*
DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH ........ 141-146

*Гаппаров Захид Гаппарович*
ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ........ 147-153

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*
TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI ........ 154-159

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Special Issue 5 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 10 July 2024
**Accepted:** 15 July 2024
**Published:** 25 July 2024

*Article / Original Paper*

# ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT AS AN EFFECTIVE WAY TO PROTECT FROM HARASSMENT AND VIOLENCE

**Rahmonova Feruza Bahromjon kizi**
Researcher of Fergana State University

**Abstract.** In this article, it is important to ensure the employment of women, social protection of women who are in a difficult social situation, ensuring their employment is one of the priorities of increasing the effectiveness of the social protection system, strengthening their position in society, gaining their place in the family, and actively participating in the life of society. It is explained that it serves as a factor.

**Key words:** gender equality, oppression, violence, social outlook, social mechanism, law, legal culture, socio-political activity, social protection, social stereotypes, family values.

# XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASH – TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO‘LI SIFATIDA

**Rahmonova Feruza Bahromjon qizi**
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xotin-qizlar bandligini ta’minlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollarni ijtimoiy himoya qilish, ularni bandligini ta’minlash ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanishi, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashda, oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, jamiyat hayotida faol ishtirok etishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** gender tenglik, tazyiq, zo‘ravonlik, ijtimoiy dunyoqarash, ijtimoiy mexanizm, huquq, huquqiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy faollik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy stereotiplar, oilaviy qadriyatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N08

**Kirish.** O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ayollarni ish bilan ta'minlashda gender tenglik tamoyillariga amal qilinishi va barcha ijtimoiy-huquqiy sharoitlarning yaratilishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlar ishtirokini kengaytiradi va mustahkamlaydi.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash orqali gender tengligiga erishish yo'lida davlat tomonidan izchil ravishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy mexanizmning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– Ayollarni avvalo oila, mahalla va turli jamoat tadbirlarida faol ishtirokini ta'minlash;

– Mamlakatda ayollar bandligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va yangiliklar haqida xotin-qizlarning xabardorligini oshirish;

– Xotin-qizlarda o'z kasbi bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash motivatsiyasini muntazam ravishda shakllantirish;

– Har bir ayol uchun o'z malakasini "Self-development" usulida uzluksiz oshirish imkoniyatlarini yaratish va bu jarayon dinamikasini jamoatchilik nazorati asosida kuzatib borish;

– Ishsiz ayollarni ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va manfaatlarini inobatga olgan holda ma'lum kasblarga maqsadli va manzilli yo'naltirish;

– Ayollarni ish bilan ta'minlash targ'iboti bo'yicha jamoat mas'uliyatini zimmasiga olgan nodavlat tashkilotlar ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish;

– Hududlarda aholining tabiiy ko'payishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ishsizlik va moddiy ta'minot muammolarini puxta hisobga oluvchi demografik o'zgarish omillari bilan doimiy ish olib borish;

– Mehnat migratsiyasiga tegishli malakaviy tayyorgarliksiz va rejasiz ravishda yondashish amaliyotidan voz kechishni hayot qoidasiga aylantirish bo'yicha mahalla va oilalarda muntazam amaliy ishlarni yo'lga qo'yish;

– Turli kasblar bo'yicha o'zgaruvchan bozor talablari va kelajakdagi ehtiyojlar doirasidagi innovatsiyalar hamda ma'lumotlarning samarali targ'ibotini tashkil etish;

– Mehnat bozorida yuqori haq to'lanadigan va ijtimoiy-iqtisodiy talabi yuqori bo'lgan kasb va hunarlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini yaratish.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlashda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda ayol ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturini hayotga tatbiq etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnat faoliyati inson hayotining salmoqli qismini tashkil etib, uni jamiyatga integratsiyalashuvini, ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash, mavjud shart-sharoitlarni umumlashtirish orqali muayyan ijtimoiy maqomga ega bo'lishini ham kafolatlaydi.

Bu jarayonda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga va gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash nafaqat ularning moddiy farovonligini oshiradi, balki o'z qobiliyatlarini namoyon etish, professional o'sish va jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatini ham beradi.

Shu bilan birga, ayollarning bandligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar ularning oiladagi an'anaviy rolini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Oila va ish faoliyatini muvozanatlashtirish uchun moslashuvchan ish grafiklari, masofaviy ish imkoniyatlari, bolalar parvarishi uchun qo'shimcha imtiyozlar kabi mexanizmlarni joriy etish muhimdir.

Xotin-qizlar bandligini oshirish uchun ta'lim tizimida ham o'zgarishlar zarur. Qizlarni yoshlikdan turli kasblar, ayniqsa, an'anaviy ravishda "erkaklarga xos" deb hisoblangan sohalarga qiziqtirish, ularning ilm-fan va texnologiya sohalaridagi ishtiroklarini rag'batlantirish lozim.

Mahalliy hokimiyat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xususiy sektor ham ayollar bandligini oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ular o'rtasidagi hamkorlikni

kuchaytirish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kasbiy ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali xotin-qizlarning ish bilan bandligini oshirish mumkin.

**Materiallar va metodlar.** Xotin-qizlar bandligini ta’minlashga qaratilgan dasturlar asosida yaratilayotgan ish oʻrinlari ayniqsa, uy mehnatini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar diqqatga sazavordir. Bu, oʻz navbatida, ayollarning oila moddiy farovonligiga munosib ulush qoʻshishlari, shu bilan birga, farzand tarbiyasi bilan bevosita shugʻullanishlari imkonini beradi.

2019-yil 2-sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi 561-sonli Qonunining “Mehnat organlarining xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari” deb nomlangan 9-moddasida “Mehnat organlari:

• xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

• ishga joylashtirilmagan xotin-qizlarni hisobga olish, ularning bandligini ta’minlash va ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

• xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zoʻravonlik hollarining oldini olish hamda xotin-qizlar bilan oʻzaro munosabatlar madaniyatini yuksaltirish boʻyicha mulk shakllaridan qat’iy nazar tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini oʻtkazadi;

• xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi,”[1] deb belgilab qoʻyilishi, yurtimizda xotin-qizlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng koʻlamli ishlarning amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Mavjud ijtimoiy muammolar va hozirgi ijtimoiy himoya tizimi, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish quyidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

– Xotin-qizlar mehnati va ijtimoiy munosabatlarni alohida tartibga solishga qaratilgan mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish;

– Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlarni, jumladan 40 soatlik ish haftasi, yillik haq to'lanadigan ta'til, onalikni himoya qilish va migrant ishchilarning asosiy huquqlarini ta'minlash;

– Transmilliy korporatsiyalar xodimlariga bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun teng haq to'lash tamoyilini joriy etish;

– Mehnatni ilmiy asoslangan me'yorlashtirishni qayta yo'lga qo'yish;

– Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) vakolatini hisobga olib, mehnat sohasini boshqarishda boshqa xalqaro institutlar rolini qayta ko'rib chiqish, XMT doirasidagi nazorat mexanizmi va texnik hamkorlik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish;

– Barcha uchun umr bo'yi ("bir umrlik ta'lim") kasb ta'limiga ega bo'lish imkoniyatini kengaytirish va soddalatirish;

– Mehnat sohasini boshqarishda davlat organlari, kasaba uyushmalari va uch tomonlama institutlar faoliyat doirasini aniq belgilash;

– Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori standartlari, ish vaqti va dam olish vaqti me'yorlarini qat'iy nazorat qilish;

– Mehnat shartnomalarini raqamlashtirish (digitalizatsiya) jarayonini joriy etish;

– Ijtimoiy himoyani noan'anaviy bandlikning barcha shakllariga keng tatbiq qilish.

Bu vazifalarni amalga oshirish orqali xotin-qizlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyasi yanada mustahkamlanadi. Mehnat qonunchiligini takomillashtirish ayollarning ish va oila majburiyatlarini muvozanatlashtirish imkoniyatini oshiradi. Xalqaro standartlarga muvofiq ish haftasi, ta'til va onalik himoyasi kabi huquqlarni ta'minlash ayollarning mehnat sharoitlarini yaxshilaydi.

Teng haq to'lash tamoyilini joriy etish gender tengsizlikni kamaytiradi va ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi. Mehnatni ilmiy asoslangan me'yorlashtirish esa xotin-qizlar salomatligini saqlashga yordam beradi.

XMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish global tajribani o'zlashtirish va milliy mehnat bozorini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Umr bo'yi ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish ayollarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Mehnat sohasini boshqarishda davlat va nodavlat tashkilotlar rolini aniq belgilash, mehnat shartnomalari raqamlashtirilishi va noan'anaviy bandlik shakllariga ijtimoiy himoyani tatbiq etish xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratadi. Bu chora-tadbirlar majmui ayollarning mehnat bozoridagi o'rnini mustahkamlaydi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshiradi.

**Muhokama va natijalar.** O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yunalishlarida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo‘yildi. 1995 yil 6 mayda mamlakatimiz 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi [2], 1997 yil 30 avgustda Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi [3], bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi konvensiyalarga qo‘shildi. Bu esa xorijiy tajribaning umume’tirof etilgan huquqiy normalariga tayangan holda, xalqimizning mental xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yishga asos bo‘ldi.

Ayollar va erkaklarning gender tengligi masalasi to‘g‘risidagi hujjatlar 1983-yilda Madridda, 1989-yilda Venada, 1991-yilda Moskvada, 1999-yilda Istanbulda, 2003-yilda Maastrixtda, 2004-yilda Sofiyada, 2005-yilda Lyublyanada, 2009-yilda Afinada qabul qilingan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini dunyo miqyosida oshirishga xizmat qilgan.

2019-yil 2-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-son, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonQonunlari, shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish borasida 15 dan ortiq normativ-

huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, mamlakatimizda ushbu masalaning xalqaro andozalar darajasiga koʻtarilganligidan dalolat beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevralda “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 5325-son Farmoni, 2018-yil 2-iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3827-son, 2019-yil 7-martda “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4235-son qarorlari qabul qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish boʻyicha Xalqaro konvensiya talablari nechogʻli toʻliq bajarilishi yuzasidan 2019-yil uchun topshirgan beshinchi davriy hisoboti asosida Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish Qoʻmitasi tomonidan berilgan tavsiyalardan biri bu erkaklar va ayollar tengligini amalda kafolatlovchi qonunni qabul qilishdir.

Konvensiyaga asosan ishtirokchi davlatlar ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish borasidagi sa’y-harakatlari doirasida:

- erkaklar va ayollarning tengligi tamoyilini mamlakatning huquqiy tizimiga kiritish, ayollarni kamsitishga asos yaratuvchi barcha qonunlarni bekor qilish va ayollarga nisbatan har qanday kamsitishni ta’qiqlovchi tegishli qonunlarni qabul qilish;

- barcha sohalarda, xususan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda, ayollarning har tomonlama faol ishtirokini va ularga oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishlarini ta’minlash maqsadida barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilikni takomillashtirish choralarini koʻrish;

- xotin-qizlarning amaldagi tengligini ta’minlashni jadallashtirish maqsadida vaqtinchalik maxsus choralarni koʻrish;

- jamiyatda bir jinsni ikkinchisidan ustun qoʻyadigan ijtimoiy normalar va qarashlarga barham berish choralarini koʻrish majburiyatlarini oʻz zimmalariga oladilar.

Mazkur xalqaro tamoyil va talablar asosida Oʻzbekistonda xotin-qizlar mavqei va nufuzini oshirishning huquqiy va ijtimoiy asoslarini shakllantirish yuzasidan ilgari amaliyotda umuman boʻlmagan islohotlar amalga oshirildi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunda esa mamlakatimizda ayollar uchun barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqlilik belgilab qoʻyildi.

Yurtimizda xotin-qizlarni ogʻir ijtimoiy ahvoldan chiqarish borasida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari ularni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirishning huquqiy asosi, hal qiluvchi zamini boʻldi. Eng asosiysi, bugungi kunda ushbu huquqiy hujjatlarning amaliyotdagi ijobiy natijalari, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yana-da takomillashtirish va samaradorligini oshirishdagi muhim ahamiyati real hayotda namoyon boʻlmoqda.

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ogʻir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollarni ushbu vaziyatdan chiqarishda tarixiy burilish boʻlgan hujjat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevralda “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5325-son Farmoni qabul qilinishidir. Farmonda ogʻir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, yordamga muhtoj, kam ta’minlangan, boquvchisini yoʻqotgan, turmushidan ajrashgan, nogiron, farzandlarini

yolg'iz tarbiyalayotgan, uy-joyga muhtoj, bandligi ta'minlanmagan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi davlatimiz tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng dolzarb, ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

**Xulosa.** Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish kambag'allikni kamaytirish vositalaridan biridir. Dastur doirasida yolg'iz va ko'p bolali ayollar, ishsizlar, yoshlar uchun tikuvchilik, pazandalik, sartaroshlik kabi sohalar bo'yicha kasbiy o'qitish kurslari tashkil etilmoqda. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Bandlik vazirligi bilan hamkorlikda "Mahalla guzarlarida kasbga o'qitish dasturi"ni ishlab chiqib, talabgorlar ro'yxatini shakllantiryapti. Bu xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning amaliy namunasidir. Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'laridan imtiyozli kreditlar ajratish, ayollarni tadbirkorlikka jalb etish orqali bandlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. https://lex.uz/docs/4494709
2. Sh. M. Asyanov, F. X. Bakayeva. O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.- Toshkent: "Mega Basim", 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya qo'shilish haqida"gi 501-sonli Qarori, 1997 yil 30 avgust. https://www.lex.uz/docs/86886
4. Nishonova N.R. O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fan doktori (DSc) dis.avtoref.–Toshkent: 2019.
5. Xolmatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. –T: O'zbekistan, 2001.
6. Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 2002.
7. Nasrullayeva X. O'zbekistonda Xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: Falsafa fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2000.
8. Jo'rayeva N.D. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni. Tarix fan. nomz...dis. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoref. –Toshkent: 2004.
9. Nurmatova M. Xotin-qizlar intellektual salohiyatini oshirish – mamlakat tarqqiyotining muhim omili. Toshkent:2018.
10. Sultonova E.Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida): Siyosiy fanlar d-ri ... dis.avtoref. – Toshkent: 2005.
11. Muravyeva N.M. O'zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish.– Toshkent: 2004.
12. Safayeva S. X. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlari. Falsafa fan. nomzodi diss...avtoref; O'zb. Resp. FA I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq in-ti. – Tashkent: 2002. – 20 b.;
13. Sodiqova Sh. Qariyalari qadr topgan yurt.– Toshkent:Yangi asr avlodi, 2015.
14. Tagiyeva G.G. Xalq bilan muloqot qilishda ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish.– Sotsiologiya fan.bo'yicha fals.dokt (PhD) dis.avtoref.–Toshkent: 2018.
15. Ганиева Г.Ж. Женский вопрос в Узбекистане: новые подходы, проблемы и решения (1991–2005): Автореф. дис... канд. ист. наук. – Ташкент: 2006.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).